Birinchidan, paremiologik birliklar semantik jihatdan murakkab tuzilishga ega bo‘lib, ularning ma’no strukturasi denotativ, konnotativ, milliy-madaniy va pragmatik komponentlardan tashkil topadi. Bu komponentlarning o‘zaro munosabati paremiologik birliklarning semantik mazmunini shakllantiradi.

Ikkinchidan, funksional xususiyatlariga ko‘ra, paremiologik birliklar kommunikativ, pragmatik, kognitiv va emotiv-ekspressiv funksiyalarni bajaradi. Bu funksional xilma-xillik ularning nutqda keng qo‘llanilishini ta’minlaydi. Ayniqsa, zamonaviy kommunikativ maydonda paremiologik birliklarning yangi qo‘llanish sohalarining vujudga kelishi ularning funksional potensialini yanada kengaytirmoqda.

Uchinchidan, paremiologik birliklarning gender xususiyatlari jamiyatda tutgan ijtimoiy roli va stereotiplarni aks ettiradi. Bu esa ularning lingvokulturologik ahamiyatini ko‘rsatadi. Shuningdek, paremiologik birliklar xalqning dunyoqarashi, qadriyatlari va madaniy xususiyatlarini saqlash va avloddan avlodga yetkazish vazifasini bajaradi.

To‘rtinchidan, paremiologik birliklarning uslubiy xarakteristikasi ularning turli nutq uslublarida qo‘llanilish imkoniyatlarini belgilaydi. Zamonaviy tilshunoslikda paremiologik birliklarning transformatsiyaga uchrashi, yangi ma’nolar kasb etishi va kontaminatsiya hodisasi kuzatilmoqda. Kontaminatsiya lotincha contaminatio – “ifloslanish”, “aralashish” ma’nolarini anglatib, bu tilshunoslikda ikki yoki undan ortiq so‘z shakllari, iboralar yoki strukturalarning o‘zaro aralashuvi natijasida yangi, ko‘pincha, gibrid shaklning yuzaga kelishi hodisasidir. Bu hodisa fonetik, morfologik, leksik yoki frazeologik darajalarda sodir bo‘lishi mumkin. Bu esa ularning dinamik rivojlanishini ko‘rsatadi.

Kelajakda paremiologik birliklarning semantik-funksional xususiyatlarini o‘rganishda quyidagi yo‘nalishlarga e’tibor qaratish maqsadga muvofiq:

1. Zamonaviy korpus lingvistikasi metodlari asosida paremiologik birliklarning qo‘llanilish chastotasini o‘rganish.
2. Paremiologik birliklarning yangi kommunikativ maydonlardagi (ijtimoiy tarmoqlar, internet-muloqot) transformatsiyasini tadqiq etish.
3. Paremiologik birliklarning zamonaviy jamiyatdagi aksiologik ahamiyatini o‘rganish.
4. Paremiologik birliklarning lingvodidaktik potensialini ochib berish.
5. Paremiologik birliklarning milliy-madaniy xususiyatlarini qiyosiy aspektda tadqiq etish.

Xulosa qilib aytganda, paremiologik birliklarning semantik-funksional xususiyatlari ularning tildagi o‘rnini belgilovchi muhim omil hisoblanadi. Ular nafaqat lisoniy hodisa, balki xalqning madaniy merosi sifatida ham talqin qilinishi muhim ahamiyat kasb etadi. Paremiologik birliklarni zomonaviy metodlar vositasida o‘rganish, ilmiy jihatdan tadqiq etish zamonaviy tilshunoslikning dolzarb vazifalaridan biri hisoblanadi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

(1). Kunin A.V. Frazeologiya zamonaviy ingliz tilida. Moskva, “Nauka”, 2017, 288-bet.
(2). Mirzayev T. O‘zbek xalq maqollari: lingvistik tahlil. Toshkent, “Fan”, 2020, 156-bet.
(3). Permyakov G.L. Paremiologiya asoslari. Sankt-Peterburg, “Nauka”, 2018, 240-bet.
(4). Safarov O. O‘zbek xalq og‘zaki ijodi. Toshkent, “Musiqa”, 2019, 224-bet.
(5). Taylor A. The Proverb in Modern Usage. New York, “Peter Lang”, 2016, 310 p.
(6). Виноградов В.В. Основные понятия русской фразеологии. Москва, “Наука”, 2021, 280 с.
(7). Жуков В.П. Словарь русских пословиц и поговорок. Москва, “Русский язык”, 2019, 544 с.
(8). Маслова В.А. Лингвокультурология. Москва, “Академия”, 2020, 208 с.
(9). Мокиенко В.М. Современная паремиология. Москва, “Флинта”, 2017, 264 с.
(10). Телия В.Н. Русская фразеология. Москва, “Языки русской культуры”, 2018, 288 с.

Nematova Nargiza Azimovna (Navoiy davlat universiteti; nematovanargiza2019@gmail.com; 0000-0003-4699-3071)

ASSOTSIATIV ALOQALAR VA KONNOTATIV MA’NO: NOMINATSIYA JARAYONIDA MADANIY OMILLAR ROLI

Annotatsiya*. Ushbu maqolada assotsiativ aloqalar va konnotativ ma’nolarning nominatsiya jarayonidagi o‘rni va ular orqali madaniy omillarning tilshunoslikdagi ahamiyati tahlil etiladi. Denotativ va konnotativ ma’no farqlari, shuningdek, til birliklarining madaniy va kognitiv kontekstda shakllanishi, lug‘at boyligining yangilanishida nominatsiyaning roli yoritilgan. Maqolada lingvokulturologik yondashuv orqali nominatsiya aktlarining madaniyatlararo muloqotdagi ahamiyati ko‘rsatiladi.*

Kalit so‘zlar*: nominatsiya, assotsiatsiya, konnotatsiya, denotatsiya, madaniy omil, lingvokulturologiya, semantika, kognitiv tilshunoslik.*

Нематова Наргиза Азимовна (Навоийский государственный университет)

АССОЦИАТИВНЫЕ СВЯЗИ И КОННОТАТИВНОЕ ЗНАЧЕНИЕ: РОЛЬ КУЛЬТУРНЫХ ФАКТОРОВ В ПРОЦЕССЕ НОМИНАЦИИ

Аннотация. *В статье рассматриваются ассоциативные связи и коннотативные значения в процессе номинации, а также значение культурных факторов в лингвистике. Раскрываются различия между денотативным и коннотативным значением, культурная обусловленность языковых единиц и роль номинации в обновлении словарного состава языка. Особое внимание уделяется значению номинации в межкультурной коммуникации с точки зрения лингвокультурологии.*

Ключевые слова*: номинация, ассоциация, коннотация, денотация, культурный фактор, лингвокультурология, семантика, когнитивная лингвистика.*

Nematova Nargiza Azimovna (Navoi State University)

ASSOCIATIVE CONNECTIONS AND CONNOTATIVE MEANING: THE ROLE OF CULTURAL FACTORS IN THE PROCESS OF NOMINATION

Annotation*. The article examines associative links and connotative meanings in the nomination process, emphasizing the role of cultural factors in linguistics. It distinguishes between denotative and connotative meanings, explores how linguistic units are shaped by cultural and cognitive contexts, and highlights the role of nomination in enriching the lexicon. The study also demonstrates the significance of nomination acts in intercultural communication from a linguocultural perspective.*

Keywords: *nomination, association, connotation, denotation, cultural factor, linguoculturology, semantics, cognitive linguistics*

Kirish. Til inson tafakkuri, madaniyati va ijtimoiy tajribasining ko‘zgusidir. Nominatsiya jarayoni orqali inson atrof-muhitdagi obyekt va hodisalarga nom beribgina qolmay, ularni ongida tasniflaydi hamda jamiyatda o‘zaro tushunishni ta’minlaydi. Bu jarayon faqatgina denotativ (obyektiv, bevosita) ma’no bilan cheklanmay, balki konnotativ (subyektiv, baholovchi va hissiy) ma’nolar tizimi bilan ham boyitiladi. Aynan shu konnotativ qatlamda madaniy omillar muhim o‘rin egallaydi. Assotsiativ aloqalar – til birliklari orqali kishining ongida uyg‘onadigan tasavvurlar, hissiyotlar, tajribalar va madaniy kontekstlar majmuasidir. Masalan, “qizil” so‘zi rangi anglatishdan tashqari, turli madaniyatlarda ehtiros, xavf, g‘azab yoki inqilobni anglatishi mumkin. Demak, konnotatsiya bu til belgisi bilan bog‘langan hissiy, baholovchi va madaniy ahamiyatlar to‘plamidir. Nominatsiya jarayonida assotsiativ aloqalar madaniy jihatdan shakllanadi va turlicha ifodalanadi. Shu bois turli tillarda bir xil denotatga ega bo‘lgan birliklar turlicha konnotatsiyalarga ega bo‘lishi mumkin. Masalan, “bo‘ri”–bir tilda jasorat timsoli bo‘lsa, boshqa tilda xavf yoki yovuzlik belgisi bo‘lishi mumkin.

Ushbu holat tillararo va madaniyatlararo muloqotda muhim ahamiyat kasb etadi. Chunki madaniy konnotatsiyalarni anglash va tahlil qilish, til vositasida ifodalangan voqelikni chuqurroq tushunishga xizmat qiladi. Shu sababli nominatsiya jarayonini faqat leksik-semantik jihatdan emas, balki lingvokulturologik nuqtai nazardan ham o‘rganish zaruratga aylanadi.

Adabiyotlar tahlili va metodologiya. Fanda konnotatsiyaning falsafiy (V.P.Alston), mantiqiy (J. Mill), semiotik (R.Bart, L.Yelmslev, S.Ullmann), psixologik (A.A.Leontyev), lingvistik (V.N.Telia, V.K. Xarchenko, V.I.Shaxovskiy), adabiy (M.M.Baxtin, G.N.Pospelov) va boshqa ko‘plab tushunchalari yaratilgan. Tilshunoslikda ushbu atama ilk bor XVII asrda Por-Royal grammatikasida qo‘llanilgan. Konnotatsiya tushunchasi turli gumanitar fanlarda ham qo‘llaniladi, lekin u, dastlab, mantiq fani doirasida paydo bo‘lgan. Konnotatsiya tushunchasini semiotikaga daniyalik tilshunos L.Yelmslev “Til nazariyasiga prolegomenlar” kitobida kiritgan. Nemis psixologi va tilshunosi K.Byuler konnotatsiya tushunchasiga matnda boshqa so‘zning paydo bo‘lishini bashorat qiluvchi so‘zning grammatik ma’nosi elementini kiritdi (masalan, predlog ma’lum bir padejdagi ot so‘z turkumiga tegishli so‘zga ishora qiladi). XIX asrda L.Blumfild asarlarida konnotatsiya nutqning pragmatik jihatidan ifodaning hissiy rangorang elementi sifatida qayd etildi. Turli davrlarda dunyoning turli qit’alarida F.de Sossyur, CH.S.Pirs, G.Frege, R.Bart, A.Greymas, G.N.Leech, V.V. Ivanov, R.Kevelzon, K.Kull, Y.M.Lotman, U.Eko, T.Shebyok, R.YAkobson, Y.S.Stepanov kabi olimlar til birliklari, denotat, designat, referent, semiozis, semiosfera, pragmatika, semantika kabi terminlar ustida tadqiqotlarni amalga oshirishgan.

Muhokama va natijalar. Tilda ikkita muhit: ifoda (bayon) plani hamda mazmun plani o‘zaro hamkorlik qiladi. So‘z, morfema, fonema va bo‘g‘inlar bayon planining denotatlarini tashkil etsa, mazmun plani ma’no birliklari va konstruksiyalaridan iborat. Mazmun plani tarkibini, avvalo, semantika, shuningdek, pragmatika o‘rganadi. Lingvistik (semantik va pragmatik) ma’nolarning asosini kognitiv (yoki konseptual) soha deb ataladigan inson ongida o‘rnashgan bilimlar, fikrlar, e’tiqodlar va baholashlarning tildan tashqari

sohasi tashkil qiladi. Bu yerda umumlashtirilgan obrazlar sifatidagi tashqi dunyoni aks ettiruvchi hamda dunyo manzarasini shakllantiruvchi g'oya va tushunchalar, bilimlarni tashkil etish sxemalari ko'rinishidagi qoliplar joylashgan. So'zlovchining maqsadi to'liq kommunikativ birlik sifatida mazmunli nutqni qurishdir. Bunday jarayonda nominatsiya aktlari muhim rol o'ynaydi. Ushbu harakatlarni amalga oshirishda til mavjud nominativ birliklardan foydalanadi yoki yangilarini yaratadi, ular yordamida voqelik nomlanadi, ular tajribaning alohida elementlari (jismoniy obyektlar, jonli mavjudotlar, odamlar, harakatlar, holatlar, obyektlarga xos xususiyatlar, obyektlar o'rtasidagi munosabatlar)ni, shuningdek, butun bir hodisa, faktlar, holatlar, vaziyatlarni ifodalaydi.

Element nominatsiyalari (so'zlar, frazeologik birliklar, shuningdek, atributiv xarakterdagi predikativ bo'lmagan iboralar) integral hodisalarning individual, nisbatan sodda komponentlarini lingvistik tasvirlash vazifasini bajaradi. So'z va frazeologik birliklar kabi nominativ birliklarning tabiatini leksikologiya, xususan, leksik semantika o'rganadi.

Tilning lug'aviy tarkibi til doirasidan tashqaridagi voqelik bilan eng yaqin munosabatda bo'lganligi sababli, bu voqelikdagi eng so'nggi o'zgarishlarni aks ettiruvchi samarali vositadir. Bu nominatsiya jarayoni orqali sodir bo'ladi. Insonning borliq bilan "o'zaro hamkorlik"ka kirishishi uchun, avvalambor, undagi obyekt, hodisalarni qandaydir belgi tizimi orqali nomlashi lozim. Ona tili yordamida bunday jarayonni amalga oshirishni nominatsiya, deb atash mumkin. Nominatsiya bu "til elementlari ular bildiruvchi obyektlarga mos tushadigan nomlash jarayoni va hosilasidir". Nominatsiya atrofdagi voqelik qismlarini tushunish natijalarini aks ettiradi va tilning rivojlanishini belgilovchi ekstralingvistik omillarning o'zgarishi bilan nominativ birliklarning o'zi ham, nomlash jarayonida uning alohida tarkibiy qismlarining faolligi ham o'zgaradi. Bu jarayon til lug'atini doimiy yangilab, boyitishning eng sermahsul vositasi hisoblanadi. So'zlarni semantik qayta tushunish asosida borliqdagi hodisa va dalillarning o'zaro ta'siri borasidagi tushuncha va tasavvurlarimizni aks ettiruvchi assotsiativ aloqalar yotadi. Ijtimoiy muhitga singib ketgan birliklar olamning til manzarasini tillararo va madaniyatlararo muloqot darajasida o'rganishga katta qiziqish uyg'otadi.

Nominatsiya uning tarkibini tashkil etuvchi denotat tushunchasi bilan chambarchas bog'liq. Tilning yagona belgisi deb atash mumkin bo'lgan voqelikning barcha elementlari, ya'ni, ma'lum bir nominativ xususiyatga ega bo'lgan elementlar fanda belgining denotat (tegishli so'z axborot beruvchi narsa yoki hodisa) lari deb ataladi. Belgida aks etgan ana shu xususiyatlar uning denotativ ma'nosini tashkil etadi. Natijada bu ma'no obyektiv voqelikning belgisi va elementi o'rtasidagi munosabatni ifodalaydi va ayni shu lisoniy belgi yordamida inson ongidagi voqelik obyektiga xos bo'lgan qandaydir muhim xususiyatga dalolat qilish yo qilmaslik imkoniyatiga ega bo'ladi. Masalan, "uy" so'zi denotativ jihatdan yashash uchun mo'ljallangan bino degan ma'noni anglatadi. "Olma" esa ma'lum bir mevaning nomi sifatida tushuniladi. Quyida lug'atda denotatning ayrim umumiy xususiyatlari bayon qilingan:

1. Ma'lum bir nutq parchasi denotati referent (Ch.Ogden va A.A.Richards belgilaganidek)ning o'zidir. Bu ma'noda "denotat" Bedeutung (asl. "ma'no") (G.Frege) va B.Rassel va A.Chorch tomonidan qo'llangan inglizcha denotation terminining muqobili sifatida qo'llaniladi. 2. Til (abstrakt) birligi denotati – mazkur birlik vositasida (uning til mazmuni doirasida) nomlanishi mumkin bo'lgan voqelik obyektlari (narsa, sifat, munosabat, vaziyat, holat, jarayon, harakat va h.k.)ning jamlanmasi, odatda, leksik birliklar denotatlari nazarda tutiladi. J.S.Millning denotation terminiga borib taqaladigan "denotat" terminining bu tarzdagi qo'llanishi (K.I.Luis, U.O.Kuayn, J.Layonz va b.) an'anaviy mantiq doirasida "tushuncha ko'lami", R.Karnapda "ekstensional" deb ataladigan tushunchaga mos keladi. Bu o'rinda denotata, birinchi navbatda, signifikat (an'anaviy mantiqning "tushuncha mazmuni", Karnapning "intensionali")ga, ikkinchi o'rinda, referentga qarama-qarshi qo'yiladi. Olamning ilmiy manzarasida, masalan, "bodring" yoki "tarvuz" so'zlari denotati "rezavor" so'zi denotati, "kit" so'zi denotati "hayvon" yoki "sut emizuvchi" so'zi denotati tarkibiga kirsa, ushbu so'zlar denotatlari olamning oddiy, jo'n manzarasidagi "sabzavot", "meva", "baliq" so'zlari deno+tatalariga kiritilgani holda til ifodasi denotati farq qiladi. Shunday qilib, denotat predmetning verbal "qiyofa"si bo'lib, I.A.Sternin va Z.D.Popovalar fikricha, konseptning bir qismi. Konseptlar esa tashqi olamda mavjud barcha narsa va hodisalarning verbal va noverbal ifodalari yig'indisidir.

Xulosa. Voqelik obyektining ongda aks etishi nafaqat uning obyektiv sifatlari (denotativ ma'nosi)ni, balki shaxs tomonidan obyektga berilgan sifatlarni tavsiflovchi xususiyatlarni ham o'z ichiga oladi. Qandaydir lingvistik belgi bilan ifodalangan bu alomatlar jamlanmasi uning konnotativ ma'nosini hosil qiladi. Anglash ko'rsatkichi va subyekti o'rtasidagi aloqani ifodalaydigan hamda ushbu til belgisi vositasida insonning ongida voqelikning aniq obyekti bilan bog'liq bo'lgan his-tuyg'ulari, baholashlari va tajribasiga ishora qila olish yo qila olmaslik imkoniyatiga ega bo'ladi. Misol uchun, "uy" so'zi iliqlik, xavfsizlik, oilaviy mehr kabi hissiyotlarni uyg'otishi mumkin. "Qizil" so'zi nafaqat rangni bildiradi, balki ehtiros, xavf yoki

inqilobiy kayfiyatni ham anglatishi mumkin. “Bo‘ri” so‘zi shunchaki yirtqich hayvonni anglatsa ham, ertaklarda mag‘rurlik, qo‘rqinch, yolg‘izlik yoki yovuzlik sifatlari bilan bog‘lanishi mumkin.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

(1). Бахтин М.М. (1981). Эстетика слова, Москва.“Искусство”.
(2). Телия, V.N. (1991). Семантика и прагматика русского языка,Москва “Наука»
(3). Харченко, В.К. (1992). Лексикология русского языка. Москва, “Высшая школа”.
(4). Ельмслев Е. (1957). К теории языка. Москва, “Прогресс”.
(5). Ullmann, S. (1977). Semantics: An Introduction to the Science of Meaning. Oxford, Basil Blackwell.
(6). Леонтьев, А.А. (1970). Психология и речь. Москва, “Академия”.
(7). Frege, G. (1892). Über Sinn und Bedeutung. Zeitschrift für Philosophie und philosophische Kritik.
(8). Пешковский А.М. (1972). Современный русский язык,Москва “ Высшая школа”.
(9). Шаховский В.И. (1999). Прагматика и семантика. Москва, “Наука”.
(10). Степанов Ю.С. (2001). Русская лингвистика: очерки. Москва, RGGU.

Atamirzaeva Maxliyo Xabibullaevna (Qo‘qon universiteti Andijon filiali “Tillarni o‘qitish” kafedrasi oqituvchisi; e-mail: atamirzayevamaxliyo@gmail.com)

NANOTEXNOLOGIK TERMINLARNING SHAKLLANISHIDAGI KOGNITIV MEXANIZMLAR

Annotatsiya. *Maqolada nanotexnologiya terminlarining shakllanishida metafora, metonimiya va analogiyaning kognitiv asoslari tahlil qilingan. Ingliz, rus va o‘zbek tillaridagi misollar asosida bu mexanizmlarning yangi tushunchalarni ifodalashdagi roli ko‘rsatib beriladi. Ularning to‘g‘ri tarjimasi va standartlashtirilishi uchun mazmuni chuqur anglanishi zarur.*

Kalit so‘zlar: *nanotexnologiya, nanoterminologiya, metafora, metonimiya, analogiya, kognitiv lingvistika, neologizm.*

Атамирзаева Махлиё Хабибуллаевна (преподаватель кафедры преподавания языков, Андижанский филиал Кокандского университета; e-mail: atamirzayevamaxliyo@gmail.com)

КОГНИТИВНЫЕ МЕХАНИЗМЫ ФОРМИРОВАНИЯ НАНОТЕХНОЛОГИЧЕСКИХ ТЕРМИНОВ

Аннотация. *В статье рассматриваются когнитивные механизмы (метафора, метонимия, аналогия) в формировании терминов нанотехнологий. На основе примеров из английского, узбекского и русского языков показано значение этих механизмов для наименования новых понятий и их корректного перевода.*

Ключевые слова: *нанотехнологии, нанотерминология, метафора, метонимия, аналогия, когнитивная лингвистика, неологизм.*

Atamirzaeva Maxliyo Khabibullaevna (Lecturer, Department of Language Teaching Andijan Branch of Kokand University; e-mail: atamirzayevamaxliyo@gmail.com)

COGNITIVE MECHANISMS IN THE FORMATION OF NANOTECHNOLOGY TERMS

Annotation. *The article analyzes cognitive mechanisms (metaphor, metonymy, analogy) in forming nanotechnology terms. Examples from English, Uzbek, and Russian show their role in conceptualizing new terms and the importance of deep understanding for accurate translation and standardization.*

Keywords: *nanotechnology, nanotechnology terminology, metaphor, metonymy, analogy, cognitive linguistics, neologism.*

Kirish (Introduction). Nanotexnologiya sohasidagi so‘nggi ilmiy-texnik yutuqlar natijasida ko‘plab yangi ilmiy atamalar paydo bo‘lmoqda. Bu yangi terminlar, aksariyat hollarda, mavjud tushunchalarning ma’nosini kengaytirish yoki ko‘chirish orqali hosil qilinadi, ya’ni, ular inson tajribasi va tasavvurlariga tayangan holda nomlanadi. Kognitiv lingvistikada metafora, metonimiya va analogiya kabi ma’no ko‘chirish mexanizmlari inson ongida yangi hodisalarni tushunish va til birligida ifodalashda asosiy vosita ekani qayd etiladi [1]. Boshqacha aytganda, odamlar yangi hodisalarni tushuntirishda o‘z tajribasi va tanish obrazlarga tayanadi, bu esa metafora va metonimiya singari usullar orqali til birligida namoyon bo‘ladi. Shu bois ilm-fan va texnikaning yangi tarmoqlarida paydo bo‘layotgan terminlar, ko‘pincha, mavjud tushunchalar ma’nosining ko‘chishi yoki kengayishi natijasida yuzaga keladi. Metafora, metonimiya va analogiya nanotexnologiya terminlarini yaratishda muhim kognitiv vositalar bo‘lib xizmat qilmoqda.

Ushbu maqolaning maqsadi nanotexnologik terminlar shakllanishida namoyon bo‘layotgan metafora, metonimiya va analogiya kabi kognitiv mexanizmlarni tahlil qilish va ularning har birining o‘ziga xos rolini misollar asosida yoritib berishdir. Maqolada, dastlab, mavzuga oid ilmiy adabiyotlar sharhi keltirilib,